

FILOLOGIYA FANLARI

SINONIMIK LUG'ATLAR VA ULARGA SO'Z TANLASH MASALASI

Mirxanova Gulandom Rustamovna

Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

guli89mirxan@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada dunyo tilshunosligi uchun izohtalab bo'lgan so'zlarning sinonimik qatorlarga birlashtirilishi va ularning so'z sifatidagi o'rni gaqida fikr-mulohazalar berilgan. Sinonimik qatordagi so'zlarning kelib chiqishi, ularning ma'lum paradigmada turishi uchun lozim bo'lgan qonun-qoidalarning keltirilishi, ushbu paradigmadagi so'zlarning xoslanishi haqidagi xulosalar aytilgan. Shuningdek, sinonimlar o'quv lug'ati uchun kerak bo'ladigan sinonimik paradigmalarning qat'iy qoidasi uchun zarur bo'lgan tavsiflar keltirilgan.

Tayanch so'zlar: leksikografiya, sinonimiya, sinonimik qator, o'quv lug'ati, sinonim lug'atlar, dialektizmlar, o'zlashma so'zlar,

Аннотация. В статье даются комментарии о связи слов, получивших интерпретацию в мировой лингвистике, с синонимическими строками и их месте в качестве слов. Делаются выводы о происхождении слов синонимического ряда, правилах, необходимых для их положения в определенной парадигме, а также характеристике слов в этой парадигме. Также представлены определения, необходимые для строгого правила синонимических парадигм, необходимых для учебного словаря синонимов.

Основные слова: лексикография, синонимия, синонимический ряд, учебный словарь, словари синонимов, диалектизмы, идиомы,

Annotation. The article provides comments on the connection of words that have been interpreted for world linguistics to synonymous lines and their place as words. Conclusions about the origin of the words in the synonymous line, the rules necessary for their standing in a certain paradigm, and the characteristics of the words in this paradigm are given. Also, the definitions necessary for a strict rule

of synonymic paradigms, which are needed for a synonyms educational dictionary, are presented.

Key words: lexicography, synonymy, synonymous series, educational dictionary, synonym dictionaries, dialectisms, idioms,

Kirish. Tilda sinonimlarning mavjudligi, xarakteri, farqi, o'xshashligi haqidagi bilimlar nazariy, sinonimlarni bir qatorga yig'ish, nutqiy paradigmlar hosil qilish, lug'atlarda qayd qilish va birlashtiruvchi hamda farqlovchi semalarini leksikografik semantizatsiyalash amaliy aspektni tashkil qiladi. Nazariy bosqich sof lisoniy, amaliy bosqich nutqiy hodisalarga asoslanadi. Dunyo tilshunosligida kommunikativ kompetentlik va muloqot madaniyatini o'stirishning muhim vositalaridan bo'lgan yangi avlod sinonim o'quv izohli lug'atlarni yaratish masalasi hanuz dolzarbligicha qolmoqda. Ma'lumki, o'quv lug'atlar o'rganilayotgan til materialini taqdim qilish bilan birga ushbu materialni qanday taqdim qilish kerak degan savolga ham javob beradi, til leksik birliklari va ularning ma'nolari haqidagi retseptiv bilimlarni ham, o'zlashtirilgan mazkur bilimlarni amalda qo'llay bilish ko'nikmasi – reproduktiv bilimlarni ham qamrab oladi. Mazkur lingvodidaktik vositalarni nutq jozibas, betakrorligi, boyligini ifodalovchi asosiy vositalardan bo'lgan

sinonimlar lug'ati misolida asoslashga katta e'tibor qaratilmoqda.

Asosiy qism. Sinonim lug'atlar semonim lug'atlarning eng keng tarqalgan turi hisoblanadi. Semonimik (lot. sema – belgi, ma'no; onyma – ism) lug'atlar leksikografiyada lug'atlarning alohida toifasi bo'lib, unga bir so'z emas, ikki yoki undan ortiq so'zni bir joyda to'plab izohlaydigan, ular o'rtasidagi ma'noviy va shakliy munosabatlarga asoslanadigan lug'atlar kiritiladi. Sinonimlar lug'ati korpusi materiali alohida so'zlik emas, balki o'zaro ichki munosabatga asoslangan mustaqil paradigmalardan tashkil topadi. O'quv sinonimik lug'at uchun so'z tanlashda uch omil – lug'at maqsadiga mos dominantani aniqlash; sinonimik qatorlarni shakllantirish; ma'nodoshlik paradigmasidan joy olishi mumkin bo'lgan leksik yoki frazeologik birlikni tanlashga diqqatni qaratish lozim. Sinonimik qator boshida, odatda, dominanta joylashadi. Dominantaning o'zi qator hosil qila olmaydi, shu bilan birga uning ma'nodoshlari ko'p bo'lishi ham mumkin. Biroq ularning hammasi

ham o'quv lug'ati so'zligiga qo'yiladigan talabga javob bermaydi. O'zbek tilining yangi avlod sinonim o'quv lug'atlari so'zligini shakllantirishda bir necha mezonlarga asoslaniladi. Avvalo, ta'lim oluvchi mansub bo'lgan ta'lim bosqichi darsliklari, xususan, ona tili, adabiyot, tarix, odobnoma, nutq o'stirishga qaratilgan darsliklar, shuningdek, qo'shimcha o'qish uchun tavsiya etilgan ijodi o'rganilayotgan yozuvchi va shoirlarning asarlarida ishlatilgan sinonim so'zlar va iboralar birinchilardan bo'lib lug'at so'zligi tarkibidan joy oladi. Biroq sinonim o'quv lug'atlar so'zligini shakllantirishda faqat darslikka tayanish bilan cheklanib bo'lmaydi. Aniqrog'i, bu yerda so'z birgina leksemani tanlash haqida emas, unga ma'nodosh bo'lgan birliklardan tuzilgan paradigma a'zolarini aniqlash haqida ketadi.

Bu jarayon bilan bog'liq eng katta muammo qator tarkibidan qat'iy joy oladigan ma'nodoshlarni saralash. Ma'lumki, tilda sinonimlar hosil bo'lishining bir necha yo'llari mavjud. Xususan, ichki imkoniyatlar – dialektizmlarning adabiy tilga o'tishi, eskirgan so'zlarning qayta iste'molga kirishi, yangi so'z yasalihi, so'z ma'nolari taraqqiyoti (ko'chma ma'nolar); tashqi imkoniyatlar – so'z o'zlashtirish asosida sinonimik qatorlar boyib

boraveradi. Akademik lug'atlarda ushbu asoslarga ko'ra paydo bo'lgan barcha sinonimlar haqida so'z borishi lug'atning mukammalligidan darak bersa, o'quv sinonimik lug'atlarda ulardan eng zaruri va eng keraklisi tanlab olingani lug'atning qimmatini belgilaydi. Shu bois ma'nodoshlik paradigmasida eskirgan so'zlar, dialektizmlar, o'zlashmalar, grammatik sinonimlardan faqat maqsadga muvofiqlari saralab olinishi, har biriga individual yondashish, o'quvchining yoshiga mosligi, pedagogik-psixologik jihatdan maqsadga muvofiqligiga ham diqqat qilishga to'g'ri keladi. Sinonimik qator uchun so'z tanlashga doir yana bir muammo o'zlashma so'zlarni tanlash bilan bog'liq. O'zlashma so'zlarni lug'atga kiritish, xarakterlash va izohlashda ularning semantik strukturasi, ma'no doirasi, so'z yasash va boshqa so'zlar bilan birikish xususiyatlarini ham e'tiborga olish zarur. O'zlashma so'zlar ko'p hollarda tilda absolyut sinonimlar – dubletlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Absolyut sinonimlar (to'liq sinonim), asosan, ilmiy terminlarda uchraydi: atama – termin, tibbiyot – meditsina, diagnoz – tashxis, muolaja – protsedura, tilshunoslik – lingvistika, lug'aviy – leksik, tema – mavzu kabi. Shu bois dubletlar lug'atda berilganda qatoridagi har bir

elementga alohida izoh berishga ehtiyoj bo'lmaydi:

Ziyoli, intelligent. Bilim-ma'rifatli kishi.

Absolyut sinonimlarning biridagi semantik taraqqiyot ikkinchisiga to'la mos kelishi tabiatan ham imkoniyatsiz darajada. Shu bois A. Hojiyev: «Hech qanday farqli belgi bo'lmasa, bunday sinonimlik o'tkinchi holat bo'lib, ma'lum vaqtlardan so'ng ulardan biri shu ma'noda iste'moldan chiqadi. Tilning tabiati shuni talab etadi», M. Mirtojiyev: "Kishilik obyektiv olamdagi bilish doirasini ma'lum bir so'z negizida namoyon qilib boradi. Bu esa absolyut sinonimlikni yo'qqa chiqara boradi. Buning ustiga dubletlarning tilda mavjudligi salbiy hodisa bo'lib, uning tarkibidagi bir so'z til uchun ortiqcha yuk hisoblanadi. Ya'ni dubletlar tilda uzoq yashamaydi, umri qisqa bo'ladi", deydi. Absolyut sinonimlarda dominantani aniqlash biroz qiyin. Garchi "dublet semantik tarkibi to'laligi bilan aynan bir xil bo'lgan birdan ortiq so'z" bo'lsa-da, ba'zan muayyan belgisi – eski yoki yangiligi, qo'llanish darajasi va boshqa jihatlari bilan ma'lum darajada farqlanib turadi. Bu shu so'zning turli davrlarda qo'llanish darajasi, faolligi, dominanta bo'la olishi bilan aloqador. Masalan, O'TSILda doklad, ma'ruza qatori quyidagicha talqin qilinadi:

Doklad, ma'ruza. Ko'pchilik oldida biror mavzuda ma'lum muddat davomida aytiladigan gap-so'z. Ma'ruza eskirgan. Qator boshida doklad so'zining kelishi, talqinda ma'ruzaning "eskirgan" degan talqini bilan izohlangan. Bugungi kun nuqtai nazaridan yondashsak, bu qator da ma'ruzaning qo'llanishi faollashgan.

Sinonimik qator uchun so'z tanlashga doir yana bir muammo o'zlashma so'zlarni tanlash bilan bog'liq. Ma'lumki, sinonimlar paydo bo'lishining eng unumdor yo'llaridan biri tashqi manba – chetdan so'z o'zlashtirish. O'zlashma so'zlarni lug'atga kiritish, xarakterlash va izohlashda ularning semantik strukturasi, ma'no doirasi, so'z yasash va boshqa so'zlar bilan birikish xususiyatlarini ham e'tiborga olish zarur. Masalan, kimyo – ximiya so'zlari bir-birining to'liq sinonimi. Ammo struktura – qurilish so'zlari to'liq sinonimlar emas. Qurilish so'zining "struktura" ma'nosidan boshqa ma'nolari ham bor.

O'zlashma so'zlar ko'p hollarda tilda absolyut sinonimlar – dubletlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Dubletlik, odatda, bir ma'noli so'zlarda uchraydi va davr o'tishi bilan ulardan faqat bittasi yashab qoladi, ikkinchisi, o'z o'rnini bo'shatib beradi. Bu – tabiat qonuni.

Zero, til o'zida ortiqcha narsalarni uzoq davr saqlab qola olmaydi.

Absolyut sinonimlar (to'liq sinonim), asosan, ilmiy terminlarda uchraydi: atama – termin, tibbiyot – meditsina, diagnoz – tashxis, muolaja – protsedura, tilshunoslik – lingvistika, lug'aviy – leksik, tema – mavzu kabi. Sinonim lug'atlar uchun illyustrativ misollarning roli muhim. Har qanday o'quv lug'atida bo'lgani kabi sinonimlar o'quv lug'atining illyustrativ materiali ham, odatda, adabiyot darslarida ijodi o'rganilayotgan yozuvchi va shoirlarning asarlaridan hamda ilmiy-ommabop nashrlardan tanlab olinadi. Illyustratsiya so'zning sinonimik qatordagi o'rne, eski yoki yangiligi, oddiy so'zlashuv nutqiga xosligi va boshqa izohga asos sifatida keltirilgan xususiyatlarni ochib beradi.

Sinonimlar hosil bo'lishining eng sermahsul va o'z navbatida, til uchun maqbul bo'lgan yo'li ichki imkoniyatlar – xalq tilidagi dialektizmlarning adabiy tilga o'tishidir. To'g'ri, har qanday shevaga xos bo'lgan fonetik, leksik yoki morfologik birlik adabiy tildagi ma'nodoshi bilan hamma vaqt ham qator hosil qilavermaydi. Unda hududiy chegaralangan – dialektizm degan tushuncha neytrallashishi, daxlsizlanishi kerak. Masalan, ada, dada; ona, oyi, aya, nana; aka, oka kabi.

O'zbek shevalarida shunday so'zlar borki, ular adabiy tilda yoki boshqa shevalarda uchramaydi. Masalan, Toshkentda – dovuchcha, Farg'onada – g'o'ra; adabiy tilda – chumoli, Samarqand, Buxoroda – mo'rcha, Xorazmda – qarindja; adabiy tilda – tuxum, qipchoq shevalarida – mayak; Xorazmda – yumirta; Xorazmda: uchak – tom, ay – oy, go'rmak – ko'rmoq; Buxoroda: inak – sigir; Farg'ona vodiysida: shoti – narvon kabi. Bunday so'zlar uy-ro'zg'or buyumlari (narvon, shoti, zangi; supurgi, jorup; tovoq, lagan, tog'ora; takya, bolish, yostiq, lo'la; gavora, beshik), hayvon, hasharot nomlari (inak, uy, sigir; buzoq, xo'jak, tana; chumoli, mo'rcha, mo'chcha, qarindja; mushuk, mosh, pishak), o'simlik, meva nomlari (o'rik, zardoli; chesnok, sarimsoq; olcha, alvoli) kiyim-bosh nomlari (do'ppi, kallapo'sh, qalpoq, takya), shuningdek, qishloq xo'jaligi, chorvachilik, dehqonchilik, qarindosh-urug', daraxt, gul, asbob-uskuna nomlari ichida faol qo'llaniladi.

Ma'lumki, istiqlol davri ijodkorlaridan Tog'ay Murod, Shukur Xolmirzayevlar ijodi xalq tiliga yaqinligi, adabiy til va xalq tili o'rtasidagi chegaralarni daxlsizlantirgani, adabiy til taraqqiyotida muhim rol o'ynagani bilan ajralib turadi. Xususan,

T. Murod asarlari tili va yozuvchi uslubi muallif unib-o'sgan Surxon vohasida yashaydigan xalq tili va muomala usuli bilan chambarchas bog'liq. Adib asarlarini o'qir ekansiz, Tog'ay Murod go'yo qishloqdoshlariga bo'lgan voqeani hikoya qilib berayotganidek tasavvur uyg'onadi. Sababi muallifning gap qurilishida ham, leksik vositalardan foydalanishida ham xalq tili qiyofasi to'la aks etadi. Jumladan, 6-sinf adabiyot darsligida muallifning «Yulduzlar mangu yonadi» qissasidan olingan parchada ko'plab adabiy tilda muqobili bo'lgan ma'nodosh so'zlarning aynan Surxondaryo shevalarida ishlatiladigan ko'rinishlari tanlangani kuzatiladi. Asar yozilgan davr – ona tilimiz butun rasmiy idoralar, hujjatlar, aksariyat ta'lim dargohlaridan siqib chiqarilgan, bu tilda gaplashish esa madaniyatsizlik belgisi sifatida qaralgan bir paytda milliy til imkoniyatlaridan o'rinli foydalana olishi T. Murodning xalqparvarlik, millatparvarlik xislatlarining bir ifodasi edi. Masalan, «Ismoil polvon davrani bir aylanib, o'zini ko'rsatdi. Xuddi shu vaziyatni ikki oydan beri angg'ib yurmish Bo'ri polvon kabinadan sakrab tushib, davraga kirdi» matnidagi angg'ib yurmoq adabiy tildagi kutib yurmoq, poylab yurmoq; «Nasim polvon to'g'risiga oyoq ildi. Soqolini siladi. Tomog'ini

qirdi» matnidagi oyoq ilmoq adabiy tilda to'xtamoq; «Qoni tez xo'jasoatliklar bidillab ketdi: – E, qo'ying-e, polvon bova, chalqayramon tashladi-yu! – Bundan ziyod qanday yiqitib bo'ladi?!» matnidagi chalqayramon adabiy tilda chalqancha; «Tevarak suv sepganday jimjit bo'ldi. Faqat Tilovberdi polvon bilan Abray polvon nafasi eshitildi. Polvonlar bir-birini ruhan arbadi» matnidagi arbadi adabiy tilda *avradi, chalg'itdi* so'zlarining ma'nodoshi hisoblanadi.

Ushbu so'zlarning aksariyati O'TILda ham, O'TSILda ham uchramaydi. Xo'sh, ularni o'quv sinonimik lug'atlarga kiritish mumkinmi? Maktab darslik va qo'llanmalarida mavjudligi muayyan leksik birlikning o'quv lug'atida aks etishi uchun yagona asos bo'la olmaydi. Lug'at so'zligi tarkibiga kira olishi uchun yana bir necha mezonlar, jumladan, ushbu birlik adabiy tilga siljigan, turdosh lug'atlarda shevaga xos so'z sifatida qayd qilingan, faqat muayyan hudud emas, nisbatan boshqa hudud aholisi nutqida ham uchraydigan bosqichga yetgan bo'lishi kerak. Yuqorida keltirilgan ang'imoq, arbamoq, chalqayramon, oyoq ilmoq so'zlari asar bilan birga xalq tiliga kirib boradi va sekinlik bilan adabiy tilga singadi.

Shuningdek, Sh.Xolmirzayevning 7-sinf “Adabiyot” darsligida berilgan «O‘zbeklar” hikoyasi matnida bir necha dialektal, tarixiy va nutqiy sinonimlar hamda ularga berilgan satr osti izohlarini uchratish mumkin: rayon – tuman; fundamental – asosiy; qiy – qumaloq; yazna – pochcha; qitmir – quv, shum; fartuk – etak; maxinatsiya – ko‘zbo‘yamachilik, firibgarlik kabi. Ushbu qatorlardagi rayon arxaiklashgan bo‘lsa, fundamental, maxinatsiya, fartuk o‘zlashma so‘zlari nutqiy sinonim sifatida ishlatilgan. Biroq qiy, yazna, qitmir dialektal sinonimlarini mavjud izohli lug‘atlarda va boshqa asarlarda uchratish mumkin.

Shu bilan birga lug‘at so‘zligini shakllantirishda og‘zaki so‘zlashuv nutqi materiallari hamda mediaplatformalardagi matnlar asosida o‘zbek segmentining

raqamli avlodi bo‘lgan yoshlar auditoriyasi – o‘quvchi-yoshlar nutqida ishlatiladigan original so‘z va iboralar, slenglar, jargon va argolar, shuningdek, boshqa birliklar ham tanlanishi mumkin. Masalan, yoshlar nutqida ishlatiladigan soxta, agressiv reklama, shov-shuv ma’nolaridagi xayp, piar, pokazuxa, ajiotaj, shumixa; kazzob, yolg‘onchi ma’nosidagi loxotron, yaxmalak, moliyaviy piramida, mashennik, uchiga chiqqan kabi sleng va jargonlar ham lug‘at turidan kelib chiqib qatorlardan muayyan muddatda joy olishi mumkin.

Xulosa. Umuman olganda, sinonimik qatordagi so‘zlarning u yoki bu xususiyatini inobatga olishda o‘sha so‘zning tildagi o‘rni inobatga olinadi. Tilga kirib kelgan neologizmlar, sheva so‘zlari yoki o‘zlashma so‘zlar ham bu qatordan joy olishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mengliyev B.R. Hozirgi o‘zbek tili. Darslik. – Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2018. – 200 b.

2. Mirzo Mahdixon. Maboni ul-lug‘at. Forsiydan Z.Umarov tarjimasini. X.Alimova nashrga tayyorlagan. – Toshkent: 2008. – 125 b.

3. Mirtojdiyev M.M. O‘zbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘zMU nashriyoti, 2007. – 79 b.

4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2006. – 568 б.

5. Ҳожиёв А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – 307 б.